JOURNAL OF ECONOMICS AND TOURISM RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

LEGAL AND INSTITUTIONAL CHALLENGES OF ALIGNING UZBEKISTAN'S FOREIGN TRADE LEGISLATION WITH WTO RULES

Mengliboyev Sardor To'lqin o'g'li
Lecturer, Tashkent Perfect University

Abstract

This article analyzes the legal and institutional problems in the process of harmonizing the national legislation of the Republic of Uzbekistan regulating foreign trade activities with the norms and standards of the World Trade Organization (WTO). The inconsistencies between the basic legal principles of the WTO - most-favored nation (MFN) and national treatment - and the norms of national legislation are considered, as well as the difficulties in implementing the agreements on intellectual property rights (TRIPS), technical barriers to trade (TBT) and sanitary and phytosanitary measures (SPS) into the national legal system. Using comparative legal and systematic analysis methods, the author substantiates the need to transform the activities of state bodies regulating foreign trade and proposes a model of a single legal platform that ensures institutional interdepartmental consistency. The results of the study are of practical and legal importance at the stage of completing the process of Uzbekistan's accession to the WTO.

Keywords

World Trade Organization, foreign trade legislation, legal harmonization, most-favored-nation treatment, national treatment, TRIPS Agreement, TBT Agreement, SPS Agreement, institutional reforms, Uzbekistan.

O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO QONUNCHILIGINI JST NORMALARIGA MUVOFIQLASHTIRISHNING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI

JOURNAL OF ECONOMICS AND TOURISM RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

Mengliboyev Sardor To'lqin o'g'li
Tashkent Perfect university o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchiligini Jahon Savdo Tashkiloti (JST) normalari va standartlariga muvofiqlashtirish jarayonidagi huquqiy va institutsional muammolar tahlil qilinadi. JSTning asosiy huquqiy prinsiplari - eng ko'p qulaylik yaratish rejimi (MFN) va milliy rejim[1] - bilan milliy qonunchilik normalari o'rtasidagi nomuvofiqliklar, shuningdek intellektual mulk huquqlari (TRIPS), savdodagi texnik to'siqlar (TBT) va sanitariya-fitosanitariya choralari (SPS) bo'yicha bitimlarni milliy huquq tizimiga implementatsiya qilishdagi qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalangan holda, muallif tashqi savdoni tartibga soluvchi davlat organlari faoliyatini transformatsiya qilish zaruriyatini asoslaydi hamda institutsional idoralararo muvofiqlikni ta'minlovchi yagona huquqiy platforma modelini taklif etadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakunlash bosqichida amaliy-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и институциональные проблемы в процессе гармонизации национального законодательства Республики Узбекистан, регулирующего внешнеторговую деятельность, с нормами и стандартами Всемирной торговой организации (ВТО). Рассматриваются несоответствия между основными правовыми принципами ВТО – режимом наибольшего благоприятствования (РНБ) и национальным режимом – и нормами национального законодательства, а также трудности имплементации соглашений о правах интеллектуальной собственности (ТРИПС), технических барьеров в торговле (ТБТ) и санитарно-фитосанитарных мер (СФС) в национальную правовую систему. Используя методы сравнительно-правового и системного

[1] Bu ikki prinsip GATT 1994ning I va III moddalarida mustahkamlangan bo'lib, JSTning huquqiy tizimidagi kamsitmaslikning asosiy tayanchlari hisoblanadi.

анализа, автор обосновывает необходимость преобразования деятельности государственных органов, регулирующих внешнюю торговлю, и предлагает модель единой правовой платформы, обеспечивающей институциональную межведомственную согласованность. Результаты исследования имеют практическое и правовое значение на этапе завершения процесса вступления Узбекистана в ВТО.

Kalit so‘zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, tashqi savdo qonunchiligi, huquqiy muvofiqlashtirish, eng ko‘p qulaylik yaratish rejimi, milliy rejim, TRIPS bitimi, TBT bitimi, SPS bitimi, institutsional islohotlar, O‘zbekiston.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, внешнеторговое законодательство, гармонизация права, режим наибольшего благоприятствования, национальный режим, Соглашение ТРИПС, Соглашение по техническим барьерам в торговле, Соглашение по санитарным и фитосанитарным мерам, институциональные реформы, Узбекистан.

Kirish

O‘zbekiston tashqi savdo qonunchiligini liberallashtirishning bugungi holati va Jahon Savdo Tashkiloti talablariga moslashish zarurati so‘nggi o‘n yillikda mamlakat iqtisodiy-huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2026-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha ko‘p tomonlama muzokaralarning yakuniy bosqichida bo‘lib, bozorga kirish masalalari bo‘yicha manfaatdorlik bildirgan 35 davlatdan 33 tasi bilan muzokaralar yakunlangan[2], milliy qonunchilikka JST talablariga muvofiq 190 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat kiritilgan[3]. Shu bilan birga, JST bitimlari normalarini milliy huquq tizimiga oddiy “ko‘chirib o‘tkazish” shaklidagi implementatsiya amaliyoti bir qator tizimli qarama-qarshiliklarni xususan, tarif va notarif tartibga solish, subsidiyalash, texnik reglament va intellektual mulk sohalarida

[2] «Vstupleniye Uzbekistana v VTO: novыy etap ekonomicheskix reform», 2026-yil 19-mart.
[3] 2026-yil 3-avgust, O‘zbekiston bosh muzokarachisi A. Urunovning JST Ishchi guruhi majlisidagi ma’lumotlari.

keltirib chiqarmoqda. Bunday nomuvofiqliklar nafaqat qonun matnlari darajasida, balki tashqi savdoni tartibga soluvchi vazirlik va idoralarning institutsional vakolatlari, ularning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati darajasida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli mavzuning dolzarbligi nafaqat huquqiy-texnik, balki institutsional-boshqaruv xarakteriga ham egadir.

Adabiyotlar tahlili

JST huquqi va uning milliy huquq tizimlariga ta’siri masalalari xalqaro iqtisodiy huquq doktrinasida keng yoritilgan. J. Jackson JSTning konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini va uning a’zo davlatlar suverenitetiga ta’sirini tahlil qilib, JST bitimlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning ikki modelini - monistik va dualistik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi[4]. P. Van den Bosshe va V. Zdouk JSTning institutsional mexanizmlarini, jumladan nizolarni hal qilish tizimi va Savdo siyosatini ko‘rib chiqish mexanizmining a’zo davlatlar milliy siyosatiga ta’sirini batafsil o‘rgangan[5]. O‘tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlarning (Rossiya, Qozog‘iston, Vetnam) JSTga qo‘shilish tajribasi bo‘yicha Jahon banki va UNCTAD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qonunchilikni JST normalariga moslashtirish jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan institutsional islohotlarning huquqiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq[6]. Mahalliy huquqshunoslik fanida tashqi savdo faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish nuqtai nazaridan tadqiq etilgan bo‘lib, ular asosan alohida institutlar (bojxona tartibga solish, litsenziyalash, texnik reglamentlash) darajasidagi tahlillar bilan chegaralangan. Shu bilan birga, tashqi savdo qonunchiligini JST normalariga kompleks, institutsional-huquqiy jihatdan muvofiqlashtirish, ya’ni idoralararo vakolatlar taqsimoti va ularning yagona huquqiy platforma asosida

[4] Jackson J.H. The World Trading System, MIT Press, 1997.

[5] Van den Bossche P., Zdouc W. The Law and Policy of the World Trade Organization, Cambridge University Press, 2021.

[6] World Bank (2022); UNCTAD (2021)

muvofiqlashtirilishi masalasi ilmiy adabiyotda yetarlicha tadqiq etilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilikni JSTning asosiy bitimlari (GATT 1994, TRIPS, TBT, SPS) normalariga muvofiqlashtirish jarayonidagi huquqiy bo‘shliqlar va institutsional nomuvofiqliklarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini ochib berish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish va tashqi savdoni tartibga soluvchi davlat organlari faoliyatini institutsional jihatdan qayta tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya. Qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va JST bitimlari normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi tashqi savdo, bojxona, intellektual mulk va texnik reglamentlash sohasidagi qonun hujjatlari JSTning tegishli bitimlari bilan qiyoslandi, shuningdek institutsional tahlil metodi yordamida tashqi savdoni tartibga soluvchi vazirlik va idoralarning vakolatlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Milliy qonunchilikda JST prinsiplariga, xususan eng ko‘p qulaylik yaratish rejimi (GATT 1994ning I moddasi) va milliy rejim (GATT 1994ning III moddasi) talablariga[7] zid bo‘lgan bir qator huquqiy bo‘shliqlar aniqlandi. Xususan, ayrim tarmoq qonunchiligida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan soliq va bojxona imtiyozlari import qilinuvchi o‘xshash mahsulotlarga nisbatan kamsituvchi rejimni yuzaga keltirishi, bu esa milliy rejim prinsipiga bevosita zid kelishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, davlat xaridlari va litsenziyalash tartib-taomillarida saqlanib qolayotgan ma’muriy cheklovlar shaffoflik va kamsitmaslik talablariga to‘liq

[7] GATT 1994, I va III moddalar.

javob bermasligi aniqlandi. Tashqi savdoni tartibga soluvchi institutsional tuzilmalar - Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, texnik reglamentlash va standartlashtirish agentliklari - faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularning vakolatlari JSTga qo‘shilish jarayonida qisman kengaytirilgan bo‘lsa-da[8], idoralararo muvofiqlashtirishning yagona huquqiy mexanizmi mavjud emas. Natijada bir xil masala (masalan, texnik reglamentni ishlab chiqish yoki SPS chorasini joriy etish) yuzasidan turli idoralar parallel va ba’zan bir-biriga zid tartibga solish hujjatlarini qabul qilish holatlari kuzatiladi, bu esa investorlar va tashqi savdo ishtirokchilari uchun huquqiy noaniqlikni kuchaytiradi.

Muammolar va yechimlar

Intellektual mulk huquqlari sohasida TRIPS bitimi talablarini[9] to‘liq implementatsiya qilish borasida asosiy muammo - huquqbuzarliklarga qarshi samarali huquqni muhofaza qilish mexanizmlarining, xususan bojxona chegarasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tartib-taomillarining yetarlicha rivojlanmaganligidadir. Savdodagi texnik to‘siqlar (TBT) bitimi[10] bo‘yicha muammo milliy texnik reglamentlarning xalqaro standartlarga asoslanish darajasi pastligi va ularni ishlab chiqishda manfaatdor tomonlarni xabardor qilish (notifikatsiya) tartib-taomilining institutsionallashtirilmaganligi bilan bog‘liq. Sanitariya va fitosanitariya choralari (SPS) bitimi[11] doirasida esa xavflarni baholashning ilmiy asoslangan metodologiyasi va bir yagona vakolatli organ tomonidan muvofiqlashtirilgan nazorat tizimining yo‘qligi asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun: birinchidan, intellektual mulk huquqlarini bojxona chegarasida himoya qilish tartibini alohida qonun hujjati bilan tartibga solish; ikkinchidan, texnik reglamentlarni ishlab chiqishda xalqaro

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi savdo sohasidagi institutsional islohotlarga oid farmon va qarorlariga asosan.
[9] TRIPS bitimi, 1994-yil.
[10] TBT bitimi, 1994-yil.
[11] SPS bitimi, 1994-yil.

standartlarga asoslanish va notifikatsiya tartibini majburiy tartibga solish; uchinchidan, SPS choralari bo‘yicha yagona ilmiy-tahliliy markaz tashkil etish taklif etiladi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tashqi savdo qonunchiligini JST normalariga muvofiqlashtirish jarayoni faqat alohida qonun hujjatlarini o‘zgartirish bilan cheklanmasligi, balki institutsional tizimni ham qamrab olishi lozim. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi normativ-huquqiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) tashqi savdo, bojxona, texnik reglamentlash va SPS sohalaridagi qonun hujjatlarini JSTning MFN va milliy rejim prinsiplariga muvofiq kelishini ta’minlovchi yagona kodifikatsiyalashgan akt qabul qilish;

2) subsidiyalar va proteksionistik imtiyozlarni JSTning Subsidiyalar va kompensatsion choralar bo‘yicha bitimi[12] talablariga muvofiq shaffof va cheklangan tartibda qayta ko‘rib chiqish;

3) tashqi savdoni tartibga soluvchi idoralar o‘rtasida vakolatlarni aniq taqsimlovchi va ularning qarorlarini muvofiqlashtiruvchi idoralararo muvofiqlashtiruv kengashi statusidagi institutsional mexanizm joriy etish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lgach o‘z majburiyatlarini bajarish salohiyatini oshiribgina qolmay, balki milliy iqtisodiyotning xalqaro savdo tizimiga barqaror integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization, 15 April 1994.

[12] Subsidiyalar va kompensatsion choralar bo‘yicha bitim (SCM), 1994-yil.

2. Jahon Savdo Tashkiloti rasmiy ma'lumotlari va O'zbekiston bilan Ishchi guruhning 2026-yildagi majlislari materiallari // gov.uz, 2026-yil 19-mart; spot.uz, 2026-yil 1-avgust.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi JSTga qo'shilish bo'yicha maxsus komissiya materiallari, 2026-yil.

4. Jackson J.H. The World Trading System: Law and Policy of International Economic Relations. — Cambridge, MA: MIT Press, 1997.

5. Van den Bossche P., Zdouc W. The Law and Policy of the World Trade Organization: Text, Cases and Materials. — Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

6. World Bank. Uzbekistan: Trade and Competitiveness — Country Diagnostic. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2022; UNCTAD. Trade Policy Framework: Republic of Uzbekistan. — Geneva: UNCTAD, 2021.

7. General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1994), Article I (General Most-Favoured-Nation Treatment), Article III (National Treatment on Internal Taxation and Regulation).

8. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi savdo faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirda).

9. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS), 1994.

10. Agreement on Technical Barriers to Trade (TBT), 1994.

11. Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS), 1994.

12. Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement), 1994.